

## MATNDA SHAXS RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI VOSITALAR

Toshboyeva Zebiniso Abdixalilovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7572808>

**Kalit soʻzlar:** matn, leksema, ruhiy holat ifodalovchi birlikma, oʻxshatishlar, sifatlashlar, iboralar, iboralarning salbiy va ijobiy ottenkasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birlik va birikmalar tasnifiy va tadqiqiy yoritilgan. Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklar guruhlariga ajratilib tahlil qilingan. Ularga namunalar va illyustrativ misollar badiiy adabiyot va gazeta matnlaridan tanlab olingan.

Har qanday matnda matn muallifining obyektga munosabati sezilib turadi. Bu turli xil unsurlar orqali yuzaga chiqishi mumkin. Matnda shaxs ruhiy holati asosan xafa, xursand, homush, tushkun, qoʻrquv, sevinch, uyat, andisha, iymon, ajablanish, taajjublanish, parishonxotir, faxr, gʻurur, gʻamgin, qahr, mahzun, horgʻin, nafrat, hasad, maʼsum, jahl, gʻazab, ezma, samimiy, mehr, yigʻi, zavq, quvnoq kabi leksemalar va shu leksemalardan hosil boʻlgan jahli chiqmoq, mehri toshmoq kabi birikmalar orqali ifodalanadi. Bunday soʻz va soʻz birikmalarining miqdori qancha koʻp boʻlmasin, inson tushishi mumkin boʻlgan har bir ruhiy holat va uning darajalarini toʻliq yoritib bera olmaydi. Masalan, xafa, biroz xafa, xafaroq, qattiq xafa boʻlmoq kabi soʻz va birikmalar bir holatning turli darajalari hisoblanadi. Lekin oraliq holatlarini ochib berolmaydi. Baʼzan shaxsning zohiriy holatini ifodalovchi birliklar ayni vaqtda shaxsning ham ichki ham tashqi holatlariga taalluqli boʻladi. Rangi sargʻaygan, afti bujmaygan kabi birliklar ishlatilganda xafa, tushkun kabi maʼno ottenkalarining namoyon boʻlishi bunga dalildir.

V.P.Belyanin oʻzining “Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе)” nomli kitobida matnni psixolingvistik taxdil qilib, matnda ifodalangan emotsiya turlariga koʻra ularni 6 turga ajratadi: 1) yorugʻ matnlar; 2) qorongʻi matnlar; 3) qaygʻuli matnlar; 4) quvnoq matnlar; 5) chiroyli matnlar; 6) murakkab matnlar<sup>1</sup>. Uning “Психологическое литературоведение” (Moskva, 2006) nomli kitobida bu fikrlar yanada chuqurlashtirilib, badiiy matnlar psixiatrii adabiyetshunoslik nomli yangi yoʻnalish nuqtayi nazaridan<sup>2</sup>.

Ruhiy holat bildiruvchi birliklarni maʼno ottenkasiga qarab salbiydan ijobiyga oʻsib boruvchi yoki ijobiydan salbiyga tushib boruvchi darajalanish orqali ham ifodalash mumkin. Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarni morfologik jihatdan

<sup>1</sup> Belyanin V.P. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). - М.: Trivola, 2000. - 248 s.

<sup>2</sup> Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent 2008

tahlil qilganda asosiy birliklar sifat soʻz turkumi boʻyicha, undan keyingi oʻrinlarda esa ot va feʼl soʻz turkumlariga taalluqlidir.

Sifat soʻz turkumi: xafa, xursand, homush, tushkun, parishonxotir, gʻamgin, mahzun, horgʻin, maʻsum, quvnoq kabi birliklar;

Ot soʻz turkumi: qoʻrquv, sevinch, uyat, andisha, faxr, gʻurur, qahr, nafrat, hasad, jahl, gʻazab, mehr, yigʻi, zavq kabi birliklar;

Feʼl soʻz turkumi: iymanish, ajablanish, taajjulanish, jahli chiqmoq, mehri toshmoq, hayron qolmoq kabi shaxs ruhiy holatini koʻrsatuvchi birliklar morfologik tahlilga misol boʻladi.

Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi unsurlar quyidagi vositalar bilan ifodalanishi mumkin:

oʻxshatishlar;

sifatlashlar;

tasviriy vositalar;

maqollar;

iboralar;

ayrim leksemalar;

kabilarni koʻrsatish mumkin. Ishimizning bu faslida shulardan biri boʻlmish tasviriy vositalar haqida toʻxtalamiz.

### **Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi iboralar:**

**Qovogʻidan qor yogʻmoq.** Koʻpincha matnda xafa, xafa boʻlmoq, ranjimoq kabi semalarni ifodalaydi. Koʻrinib turganidek bir soʻzga teng boʻlganda sifat yoki feʼl soʻz turkumi vazifasini bajaradi. “Kecha negadir Nozima xolaning qovogʻidan qor yogʻar, hammaga ters gapirar edi” (Gazetadan).

**Toʻnini teskari kiymoq.** Odatda matnda turli nutq uslublariga mos ravishda jahli chiqmoq, ranjimoq, fikridan qaytmoq kabi maʼnolarda qoʻllaniladi. “Otabekning alanglab javob berishi, Zaynabning boyagi daʼvosini chinga chiqarganday boʻlib, Kumush juda ham toʻnini teskari kiydi”. (A. Qodiriy “Oʻtkan kunlar”)

**Tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq.** Bir inson bir ishning natijasi oʻzi kutgan holatda boʻlmasligi sababli boʻshashib, hafsalasi pir boʻlib qolishi yaʼni umidsizlikka tushishi. “Odamlar tarvuzi qoʻltigʻidan tushib, qishloqqa qaytishdi. ( M. Ismoilijiy)

**Hafsalasi pir bo'lmoq.** Ixlosi qaytmoq, tark etmoq, yuz o'girmoq, voz kechmoq, umidi puchga chiqmoq, biror narsadan norozi bo'lmoq istilohiy ma'nolarini bildiradi. Rahimdan hafsalasi pir bo'lgan Qo'ziboy shiyponga yetguncha bir marta ham orqasiga qaramadi (H.Nazir).

**Sirkasi suv ko'tarmaydi.** Injiq, ezma, tabiati nozik kishilarga ishlatiladigan ibora bo'lib, asosan salbiy ottenka ifodalash uchun qo'llaniladi. "Haqiqatda Ismoil ota sirkasi suv ko'taraydigan odam". (U. Nazarov)

**Kapalagi uchmoq.** Juda qo'rqib ketmoq, taajjublanmoq, seskanmoq ma'nosida to'satdan yuz bergan, kutilmagan vaziyatni ifodalashda qo'llaniladi. "Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi! Naq kapalagim uchib ketdi". (Oybek)

**Og'zi qulog'ida.** Xursand, behad shod bo'lmoq, o'zida yo'q sevinmoq ma'nosini ifodalaydi. "Orolni ko'rib hamma sevinib ketdi, ayniqsa, Kiriskning og'zi qulog'ida edi." (Ch. Aytmatov)

**Og'zining tanobi qochgan.** Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab lunjini yig'ishtirib ololmaslik. "Mahdum ko'zlari g'ilaylashib, qovoqlari uchib, og'zining tanobi qochib, ko'ngli uzoq safarlarni ixtiyor etar edi. (A. Qodiriy)

#### **Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi o'xshatishlar:**

**Rangi ayozdek.** Biror voqea-hodisadan yoki habardan qattiq qo'rqib, o'zini yo'qotib qo'yish darajasi. "Sunbula xatni o'qir-o'qimas qo'llari qaltirab, rangi ayozdek oqarib ketdi. Qora xatni olib kelgan pochta bundan o'zini yo'qotdi".

**Qordek oqargan;** Rangi ayozdek o'xshatishining sinonim varianti hisoblanadi. Juda qattiq ta'sirlanish, kuchli qo'rquv yuzasidan yuz bergan holatni ifodalaydi.

**Muzdek sovuq-** insonlarning ruhiy holatini, turli vaziyatini, biror narsadan juda qattiq qo'rqqan yoki siqilgan holatdagi ifodasini beradi.

#### **Shaxs ruhiy holatini ifodalovchi sifatlashlar:**

**Sarg'aygan** –1) ko'chma zoriqib, toliqib kutmoq, mahtal, intiq bo'lmoq. Idorama – idora bir imzo uchun sarg'ayib, haftalab umrim zoye ketgan vaqtlar.

2) ko'chma Qattiq yalinmoq, iltijo qilmoq, iztirob chekmoq.

Momo, sizga so'z so'zladik mung'ayib,

Arz aytamiz endi sizga sarg'ayib( "Rustamxon" dostonidan)

Bu kabi misollarni yanada ko'paytirish mumkin. O'zbek tilining 5 tomlik izohli lug'atida bu kabi birliklar ko'pmiqdorni tashlik qilishini kuzatishimiz mumkin.

Bo'zargan,

Yuzi kulgan,

Rangi o'chgan,

Ko'kargan,

Yuqorida keltirilgan ibora, o'xshatish va sifatlashlarning morfologik xususiyatlari aksariyat hollarda sifat, undan keyingi o'rinlarda ot so'z turkumiga mos kelishi aniqlandi. Yuqoridagi birliklarning asosiy qismi uslubiy jihatdan tasniflanganda so'zlashuv va badiiy uslubga hos ekanligi aniqlandi. Alohida olingan so'zlarning (undov, taqlid, modal) bevosita shaxs ruhiy holatini ifodalashi kuzatilmadi. Birikma holda kelishi bundan mustasno.

### References:

1. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent.: Fan, 2013. 140 bet.
2. Muhamedova S, Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma, Toshkent-2011. 117 bet
3. Qurbonova M. "Matn tilshunosligi" - Toshkent. "Universitet" nashriyoti – 2014.